



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**O'tkir O'tanov
Shuhrat Shukurov**

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchilari

XALQ TA'LIMI XODIMLARINING KASBIY STANDARTLARINI ISHLAB CHIQUISHGA DOIR

Annotasiya. Standart (ing. standard — me'yor, namuna, o'lcham) — keng ma'noda — boshqa ob'ektlarni taqqoslash uchun dastlabki ob'ekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model; standartlanadigan ob'ektga qo'yiladigan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me'yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me'yoriy texnik hujjat.

Kalit so'zlar: Standart, kasbiy standart, kompetentlik, kasbiy kompetentlik

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963 sonli qarorida asosiy vazifalar sifatida “kelajak maktabi, uning rahbari va o'qituvchisining modelini yaratish asosida xalq ta'limi xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta'lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash” belgilab berilgan.



Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘rsida”gi qarorining Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartining asosiy prinsiplarida;

davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta’minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish bugungi kun talabidir.

Shu o‘rinda standart tushunchasiga quyidagi izohlarni keltirish joiz.

Standart (ing. standard — me’yor, namuna, o‘lcham) — keng ma’noda — boshqa ob’ektlarni taqqoslash uchun dastlabki ob’ekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model; standartlanadigan ob’ektga qo‘yiladigan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me’yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me’yoriy texnik hujjat. Standart. inson faoliyatining barcha sohalari: fan, texnika, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, qurilish, transport va boshqaga taalluqli. Qo‘llanish sohasiga qarab, davlat standarti (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi), tarmoq standartlari (tarmoqlar vazirliklari tasdiqlaydi), korxonalar va birlashmalar standartlari (korxonalar va birlashmalar boshqaruvi tasdiqlaydi) kabi turlarga bo‘linadi. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari bo‘yicha respublika, viloyatlar va boshqaga qarashli korxonalar, tashkilot va muassasalar uchun Standartlarni qo‘llash majburiy. Vazifasiga qarab, standart quyidagi turlarga bo‘linadi: umumtexnik va tashkiliy metodik qoida hamda me’yorlar; mahsulotga qo‘yiladigan umumiy talablar, ko‘rsatkichlar, sifat me’yorlari, ekspluatatsion xossasi va



texnik tafsiloti, tarmoqlararo ishlatiladigan bir jinsli mahsulotlar guruxini nazorat qilish usuli; fizik kattalik birliklari va boshqalar. Bularni qo'llash natijasida mahsulotlarning sifati oshadi, detallarni birxillashtirish va o'zaro almashuvchanlik darajasini oshirishga imkon tug'iladi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish osonlashadi, mahsulotlardan foydalanish va ularni ta'mirlash samaradorligi oshadi, mahsulot qaysi korxonada ishlab chiqarilganligidan qat'iy nazar istalgan joyda ishlataveriladi va boshqa O'zbekistonda standartlar O'zbekiston Respublikasi "Uzstandart" agentligi (Respublika metrologiya xizmatlari ko'rsatish agentligi) tomonidan belgilanadi.

Ta'lim jarayonini ham rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy an'analaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida o'rnatilgan yagona qoida va talablarga mos kelish) hisoblanadi.

“Standart” ingliz tilidan tarjima qilinganda “me'yor”, “namuna”, “andoza”, “model” ma'nolarni anglatadi. Standart yordamida respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O'quvchi davlat tomonidan belgilangan ta'lim standarti bilan cheklanishlari mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo'lgan yoki qiziqarli bo'lmagan fanni o'rganishda o'quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi.

Kasbiy standart deganda esa – ta'lim sohasida pedagog xodimlarning kasbiy faoliyat andozasi, muayyan fan sohasidagi me'yori, namunasi, o'lchami, keng ma'noda esa — boshqa sohalarga taqqoslash uchun qabul qilingan namuna, etalon, modelidir. Pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish orqali pedagoglarning umumiy faoliyati aniqlashtiriladi va shu bilan birga ta'lim jarayonining samaradorligini osharishning maqbul sinalgan andozasini hosil qilish mumkin bo'ladi. Vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me'yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me'yoriy texnik hujjat orqali tasdiqlanib amaliyotga joriy etiladi.

Pedagog xodimlarning kasbiy standartlarini ishlab chiqishda ikki omil muhim ahamiyatga ega. Ya'ni:



1) turli ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratilishining mumkinligi;

2) O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida kasbiy standart mazmuni rivojlanish an'analari taraqqiy ettirilishi.

Bunda ya'ni, xalq ta'limi xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borishda pedagog xodimlardan quyidagi muhim jihatlar talab etiladi.

- pedagog xodimlarda kasbiy, tayanch, fanga oid kompetensiyalarni uzluksiz rivojlantirib borish;
- pedagog xodimlarda pedagogik, psixologik, mutaxassislik, AKT, xorijiy tajribalarga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;
- pedagog xodimlarni "Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish kabi muhim tarkibiy qismlar xalq ta'limi xodimlarining kasbiy standartlarining asosi bo'lib xizmat qiladi.